

Kredit liniyasi ochilgan holda kreditlash to'g'risida
KREDIT SHARTNOMASI
(namunaviy shakli)

20 __ yil " __ " _____ № _____ shahri

"Trastbank" xususiy aksiyadorlik bankining _____ filiali (keyingi o'rinlarda – Bank) boshqaruvchisi _____ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va _____

(qarzdorning/mijozning to'liq nomi)

(keyingi o'rinlarda – Qarzdor/mijoz) rahbari _____ asosida faoliyat yuritib, ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani (ustav, nizom, guvohnoma) quyidagilar to'g'risida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank, _____ kredit komissiyasining 20__ yil " __ " _____ dagi (Filial/Bosh bank) _____/_____ -son bayonnomasiga muvofiq Qarzdorga/mijozga _____ muddatga _____ (_____) so'mga kredit liniyasini ochadi.

2. Kredit liniyasini ochish quyidagi transhlar amlga oshiriladi:

a) 1-transh: 20__ yil _____ oyidan _____ (_____) so'm;

b) 2-transh: 20__ yil _____ oyidan _____ (_____) so'm;

v) 3-transh: 20__ yil _____ oyidan _____ (_____) so'm;

g) 4-transh: 20__ yil _____ oyidan _____ (_____) so'm.

Qarzdor/mijoz Bankning kredit mablag'ini transhlar bo'yicha belgilangan muddatdan oldin ishlatish niyatida bo'lsa, u Bankka kredit mablag'i muddatidan ilgari foydalaniladigan sanadan 5 bank kuni oldin yozma murojaat qilishi lozim.

3. Kreditning maqsadi _____ hisoblanadi.

4. Qarzdor/mijoz tomonidan olingan kredit hisobini yuritish uchun Bank unga tegishli kredit hisobvarag'ini ochadi.

5. Bank Qarzdorga/mijozga ajratilgan kreditning to'liq qiymatini hisoblaydi.

Kreditning to'liq qiymati kredit shartnomasiga muvofiq Qarzdor/mijoz tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlardan iborat bo'lib, ushbu to'lovlarning miqdori va muddati kredit shartnomasini tuzish paytiga aniq bo'ladi. Agar Qarzdorning/mijozning uchinchi shaxs foydasiga amalga oshiradigan to'lovlari kredit shartnomasi shartlaridan kelib chiqadigan bo'lsa, bunday to'lovlar ham kreditning to'liq qiymatiga qo'shiladi. Kreditning to'liq qiymatiga quyidagi to'lovlar kiradi: kredit shartnomasining tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan Qarzdor/mijoz to'lovlari (kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarishga oid to'lov; kredit bo'yicha foiz to'lovi, muddati o'tgan kreditga oshirilgan stavka bo'yicha foiz to'lovi); kredit shartnomasi shartlariga muvofiq Qarzdorning /mijozning uchinchi shaxs (sug'urta kompaniyasi, notarial idora) foydasiga amalga oshiradigan to'lovlari (garovga qo'yilayotgan mulkni baholash uchun to'lov; garov predmetini sug'urtalash uchun to'lov va boshqa to'lovlar). Kreditning to'liq qiymatiga quyidagi to'lovlar kirmaydi: kredit shartnomasiga emas, balki O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladigan Qarzdor/mijoz to'lovlari (masalan, transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash uchun to'lov); kredit shartnomasining shartlari bajarilmaganligi bilan bog'liq Qarzdor/mijoz to'lovlari (penya, jarima).

2-§. Kreditning foiz stavkasi va

ko'rsatilgan xizmat uchun olinadigan haq

6. Kreditning foiz stavkasi yillik hisob asosida ___% miqdorida belgilandi.

Kredit bo'yicha to'lov muddati o'tgan foiz yuzaga kelgan taqdirda Qarzdor/mijoz har bir muddati o'tgan kun uchun to'lov muddati o'tgan foiz qiymatidan Bankka __%, lekin muddatida to'lanmagan foiz qarzdorligining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi (agar tegishli kredit komissiyasi qarorida muddati o'tgan foiz qarzdorligiga penya o'rnatilgan bo'lsa). Penya to'lanishi Qarzdorni/mijozni muddati o'tgan foiz qarzdorligini to'lashdan ozod qilmaydi.

7. Kredit shartnomasining tarkibiy qismi hisoblangan kredit liniyasining kamayish grafigida belgilangan muddatda kreditning qaytarilishi amalga oshirilmasa, Bank tomonidan kredit foizi kredit shartnomasida o'rnatilgan foiz stavkasidan 1,5 marta oshirilgan foiz stavkasida undiriladi.

9. Mazkur Shartnoma shartlariga Qarzdorning/mijozning tashabbusiga ko'ra o'zgartirish kiritilganda, Bank Qarzdordan/mijozdan Bank tariflariga muvofiq vositachilik haqi undiradi.

3-§. Kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tartibi

9-1. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to'lash tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq _____ usulida amalga oshiriladi.

(differensial yoki annuitet)

10. Bank kreditdan foydalanganlik uchun foizni Qarzdorga/mijozga hakikatda berilgan kredit bo'yicha asosiy qarzning qoldig'iga nisbatan ushbu Shartnomada belgilangan nominal stavka bo'yicha hisoblaydi. Bunda, kreditdan foydalanganlik uchun foiz kredit qiymati Qarzdor/mijoz tomonidan ko'rsatilgan hisobvaraqa o'tkazilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

11. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to'lash ushbu Shartnomaga ilova qilingan kredit liniyasining kamayish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

Bank kredit to'lovini har oyning 11-sanasi undiradi. Kredit to'lovi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, hisoblangan foizni to'lash dam olish kunidan keyingi birinchi ish kunida dam olish kunida hisoblangan foizni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Kredit liniyasining kamayish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddati o'zgarganda, ushbu Shartnoma shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilganda (shu jumladan kredit restrukturizatsiya qilinganda), shuningdek Qarzdor/mijoz tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan ushbu kredit bo'yicha to'lovni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to'lovlarining miqdori o'zgarganda Bank kredit liniyasining kamayish jadvalini, qo'shimcha kelishuvga asosan, yangidan rasmiylashtiradi. Bunda, kredit liniyasining kamayish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kredit liniyasining kamayish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

Agar kredit bo'yicha foizni to'lash dam olish kunlariga to'g'ri kelsa, to'lov dam olish kunlaridan keyingi birinchi ish kunida, dam olish kunlariga hisoblangan foizni ham qo'shgan holda, amalga oshiriladi.

12. To'lov miqdori qarzdorning/mijozning kredit bo'yicha Bank oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lmaganda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 248-moddasiga muvofiq, kelib tushgan pul mablag'i qarzdorlikni qoplashga quyidagi ketma-ketlikda yo'naltiriladi:

a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

b) joriy davr uchun hisoblangan foiz va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

v) jarima va penya;

g) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

13. Kredit yoki unga hisoblangan foiz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lganda Bank Qarzdorning/mijozning filialdagi yoki boshqa bankdagi asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga akseptsiz tartibda to'lov talabnomasini qo'yishga haqli hisoblanadi.

14. To'lovni amalga oshirishga asos bo'ladigan barcha hujjat va shartnomalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim. Ushbu talabga rioya etilmaganda Bank kredit hisobvarag'idan to'lovni amalga oshirishdan bosh tortishga haqli hisoblanadi. Bank to'lovni amalga oshirishga asos bo'ladigan shartnomaga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni talab qilishga ham haqli hisoblanadi.

4-§. Tomonlarning majburiyatlari

15. Bankning majburiyatlari:

- a) kredit liniyasini Qarzdorga/mijozga 20__ yil “__” _____ dan 20__ yil “__” _____ gacha bo‘lgan muddatga foydalanish uchun ochish;
- b) to‘lov hujjati O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilganda, kredit hisobidan to‘lovni u taqdim etilgan kunda amalga oshirish;
- v) kreditni muddatidan oldin undirish omili va sabablari haqida Qarzdorni/ mijozni xabardor etish;
- g) Bank Qarzdorga/mijozga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, mazkur kredit bo‘yicha mablag‘ berishni to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarzdorga/mijozga kredit berish to‘xtatilganligi va uning sababi yuzasidan yozma xabarnoma yuborish;
- d) kredit bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda Qarzdor/mijoz zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 kalendar kuni davomida har qanday aloqa bog‘lash usulidan, shu jumladan elektron aloqa vositasidan foydalanib, Qarzdorga/mijozga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida kredit liniyasini kamaytirish jadvalini ilova qilgan holda xabar berish;
- ye) Qarzdorni/mijozni ushbu shartnoma bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlari bajarilmaganligi holati, muddati, qiymati, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilish, Qarzdordan/mijozdan muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so‘rash;
- yo) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to‘lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o‘z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish (ushbu talabnomada talabnoma tuzilgan sanadagi Qarzdorning/mijozning joriy qarzi miqdori va tarkibi, qarzni to‘lash usullari, talabnomada ko‘rsatilgan muddatgacha Qarzdor/mijoz o‘z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari va nizoni sudgacha hal qilish usullari qayd etiladi);
- j) Qarzdordan/mijozdan kreditning joriy to‘lovi uchun kreditni qaytarish grafigida belgilanganga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushsa, kelib tushgan mablag‘ning ortiqcha qismini Qarzdor/mijoz kreditining asosiy qarzini so‘ndirishga yo‘naltirish hamda kredit qiymatini qayta hisoblash.

16. Qarzdorning/mijozning majburiyatlari:

- a) kreditlash muddati davrida kreditlashning qaytarishlilik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik, muddatlilik va maqsadli ishlatish shartlarini bajarish;
- b) mazkur Shartnoma shartlari va kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq kreditni belgilangan muddatlarda to‘lash, Bank bilan o‘z vaqtida hisob-kitobni amalga oshirish;
- v) kredit qaytarilishining ta‘minoti sifatida quyidagilarni taqdim etish (*amalda taqdim etilgan ta‘minot turi aks ettiriladi*):
- *ko‘chmas mulk garovi* (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq va Bankni qanoatlantiradigan tarzda rasmiylashtirilgan, qiymati _____ (_____) so‘mga teng bo‘lgan, _____ manzili bo‘yicha joylashgan, 20__ yil “__” _____ dagi _____-son guvoohnoma va 20__ yil “__” _____ dagi _____-son kadastr hujjati bilan _____ ga tegishli ko‘chmas mulk);
 - *transport vositasi garovi* (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq va Bankni qanoatlantiradigan tarzda rasmiylashtirilgan, qiymati _____ (_____) so‘mga teng bo‘lgan, _____ manzili bo‘yicha joylashgan, 20__ yil “__” _____ dagi _____-son texpasport va _____ davlat raqami bilan _____ ga tegishli transport vositasi);
 - *texnologik uskuna garovi* (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq va Bankni qanoatlantiradigan tarzda rasmiylashtirilgan, qiymati _____ (_____) so‘mga teng bo‘lgan, _____ manzili bo‘yicha joylashgan, 20__ yil “__” _____ dagi _____-son yuk bojxonasi deklaratsiyasi/yuk xati bilan _____ ga tegishli texnologik uskuna);
 - *kafillik garovi* (qiymati _____ (_____) so‘mga teng bo‘lgan, _____ tomonidan berilgan, 20__ yil “__” _____ dagi _____-son kafillik shartnomasi bilan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga

muvofoq rasmiylashtirilgan kafillik).

g) kredit bo'yicha garov ta'minotini, mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan, alohida shartnoma (garov shartnomasi, kafillik shartnomasi) bilan rasmiylashtirish;

d) garov predmetini kreditning to'liq davriga o'rnatilgan tartibda Bank foydasiga sug'urta qilish hamda sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va notarial tarzda tasdiqlangan garov shartnomasining aslini Bankka topshirish [agar ko'chmas mulk va transport vositasi birlamchi bozordan sotib olingan bo'lsa, Bank tomonidan ajratiladigan kredit bo'yicha ushbu ko'chmas mulkning (transport vositasining) o'zi garovga olinganda ipoteka (garov) shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanmaydi];

ye) ushbu Shartnoma amal qiladigan davr ichida, Bankni oldindan ogohlantirmasdan, boshqa banklardan kredit olmaslik, kafolat bermaslik yoki kafil bo'lmaslik, qarz olmaslik, shuningdek o'zining har qanday mulkini boshqa kreditorning krediti bo'yicha ta'minot sifatida garovga qo'ymaslik;

yo) taqdim etilgan biznes-planga muvofoq texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishini ta'minlash;

j) olingan kreditni ushbu Shartnomaga ilova qilingan kredit liniyasining kamayish grafigida belgilangan muddatlarda yoki muddatidan oldin qaytarish;

z) kredit bo'yicha asosiy qarzni kredit liniyasining kamayish grafigi bo'yicha qaytarish, kreditga hisoblangan foizni ushbu Shartnomaning 11-bandida qayd etilgan muddatda to'lash, shuningdek ushbu Shartnomaning 9-bandida ko'rsatilgan vositachilik haqini undirish uchun zarur bo'ladigan mablag'ning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida mavjud bo'lishini ta'minlash;

i) nazorat funksiyasi amalga oshirilishi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofoq davlat soliq inspeksiyasiga taqdim qilingan buxgalteriya balansi (1-shakl bo'yicha hisobot) va moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl bo'yicha hisobot) nusxalari, pul mablag'ining harakati to'g'risida hisobot, debitor va kreditor qarzdorliklar yoyilmasini (90 kundan ortiq muddat davomida mavjud bo'lib kelayotgan qarzdorliklar bo'yicha solishtiruv dalolatnomasining nusxasi ilova qilingan holda) ushbu Shartnoma amal qiladigan davr davomida hisobot choragidan keyingi oyning 25 sanasidan kechiktirmasdan Bankka taqdim etib borish (*agar hisobot yilda bir marta topshiradigan bo'lsa, operativ balans hisobotini, moliyaviy hujjatni imzolash vakolati bo'lgan rahbarlar tomonidan imzolangan va muhr bosib tasdiqlangan holda, to'liq hajmda har chorakda taqdim qilib borish*);

y) loyihani kreditlash masalasi bilan bog'liq har qanday axborotni unga zaruriyat ushbu Shartnoma amal qiladigan davr davomida paydo bo'lganda Bankka uning talabi bo'yicha taqdim etish;

k) Bankning tegishli vakolatga ega bo'lgan xodimlarining buxgalteriya hujjatlari bilan tanishish, kreditning maqsadli ishlatilganligini tekshirish, garov mulkning haqiqatdagi holatini ko'zdan kechirish uchun xizmat binolari, ishlab chiqarish ob'ekti va boshqa hududga bemalol kirishini ta'minlash;

l) yuridik manzili va boshqa rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida, o'zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida, Bankka xabar berish;

m) ushbu Shartnoma amal qiladigan davr davomida mulk shaklini qo'shish, tugatish va boshqa har qanday shaklda qayta tashkil etish orqali o'zgartirishni Bankning yozma roziligisiz amalga oshirmaslik;

n) ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz va/yoki foiz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lsa, Bankka o'zining O'zbekiston tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'ini so'zsiz va akseptsiz yechib olish/undirish/hisobdan chiqarish huquqini berish;

o) kredit va unga hisoblangan foiz bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish uchun mablag'i mavjud bo'lmagan holda qarzdorlik yuzasidan undiruvni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda garov ta'minotiga yoki boshqa likvidli mulkiga qaratish huquqini Bankka berish;

p) faoliyati tugatilganda yoki huquqiy maqomi o'zgarganda ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarni bajarish tugatilgan (maqomi o'zgargan) Qarzdorning/mijozning vorisiga o'tadi yoxud Qarzdor/mijoz kredit va unga hisoblangan foiz bo'yicha qarzdorlikni, ushbu Shartnomada belgilangan so'ndirish muddatidan qat'iy nazar, muddatidan oldin to'lash;

r) boshqa banklarda ikkilamchi hisobvarag'i mavjudligi to'g'risida Bankka xabar berish;

s) agar tomonlar o'rtasida o'zaro kelishuvga erishilmagan bo'lsa, ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlar bajarilmagunga qadar boshqa banklarda milliy va chet el valyutalarida hisobvaraqlar ochmaslik, shuningdek kredit va boshqa moliyaviy majburiyatlar rasmiylashtirmaslik;

t) ushbu Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab 60 bank kuni davomida ajratilgan kredit mablag'ini to'liq ishlatish;

u) Garov reestriga yozuv kiritilishiga qarzdor/mijoz va/yoki garovga qo'yuvchining yozma roziligi taqdim etish.

5-§. Tomonlarning huquqlari

17. Bankning huquqlari:

a) Qarzdorning/mijozning kreditni qaytarish qobiliyatini aniqlash uchun uning moliyaviy holatini har chorakda tahlil qilish;

b) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi o'zgarganda, Qarzdorni/mijozni yozma ogohlantirgan holda, kreditning foiz stavkasini o'zgartirish;

v) ushbu Shartnoma amal qiladigan davr davomida Qarzdor/mijoz faoliyati ko'rsatkichlarining biznes-rejaga muvofiqligi, garovga olingan mulkning holati hamda kredit va unga hisoblangan foizni o'z vaqtida so'ndirish istiqbolini monitoring qilish;

g) kredit o'z vaqtida qaytarilmaganda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qarzdorlikni so'ndirishga qaratilgan barcha imkoniyatlardan foydalanish;

d) Qarzdorning/mijozning moliyaviy holati yomonlashganda (zarar ko'rib ishlash, balansning nolikvidligi, 2-kartotekaning mavjudligi, buxgalteriya hisobini yuritish talabga javob bermasligi, hisobot ma'lumotlarining ishonchli emasligi), biznes-rejaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bajarilmaganda, bank nazoratidan bosh tortilganda kreditni muddatidan oldin so'ndirishni talab qilish va kreditlashni bundan buyon to'xtatish;

ye) kreditning maqsadli ishlatilmagan qismini jarima qo'llagan holda muddatidan oldin undirish;

yo) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish;

j) Qarzdor/mijoz talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, sudga da'vo bilan murojaat etish;

z) kredit va unga hisoblangan foiz bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish uchun Qarzdorning/mijozning mablag'i mavjud bo'lmaganda qarzdorlik yuzasidan undiruvni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda garov ta'minotiga yoki boshqa likvidli mulkiga qaratish;

i) kredit so'ndirilishidan 20 bank kuni oldin Qarzdordan/mijozdan asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga kirim qilinayotgan mablag'ni kredit va unga hisoblangan foiz bo'yicha qarzdorlik qoldig'i so'ndirilishi uchun yetarli miqdorda to'plab borishni talab qilish;

y) Qarzdor/mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz va/yoki foiz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lsa, Qarzdorning/mijozning O'zbekiston tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'ini so'zsiz va akseptsiz yechib olish/undirish/hisobdan chiqarish (bunda Bank tomonidan mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorga/mijozga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sababga asosan Bank foydasiga undirilganligi ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi);

k) Qarzdor/mijoz tomonidan, ushbu Shartnoma doirasida, korrupsion harakatlar bevosita yoki bilvosita sodir etilganligi aniqlansa, mazkur Shartnomani bir taraflama bekor qilish;

l) quyidagi har qanday davrda sodir bo'ladigan holatlarning har birida kreditni muddatidan oldin sud tartibida to'liq undirish:

Qarzdor/mijoz mazkur Shartnoma yuzasidan o'z majburiyatlarini kreditni qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz, hisoblangan foiz, muddati o'tgan kreditga oshirilgan stavka bo'yicha hisoblangan foiz bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun davomida;

Qarzdor/mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini (qarzdorlikni to'lash majburiyatidan tashqari), ularni bajarmayotganligi haqida bildirishnoma (talabnoma) yuborilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida lozim darajada bajarmasa.

18. Qarzdorning/mijozning huquqlari:

a) ushbu Shartnomada belgilangan shartlarda, miqdorda va muddatda kredit olish;

b) ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin va Qarzdor/mijoz tomonidan pul mablag'i olingunga qadar bo'lgan davrda kredit olishdan bepul asosda voz kechish;

v) kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni jarima sanksiyalarisiz istalgan vaqtda muddatidan oldin to'liq to'lagan holda Bank bilan ushbu Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish;

g) kredit bo'yicha garovda turgan o'zining depozitidagi mablag'ini ushbu Shartnoma davrining hohlagan vaqtida depozit amal qilish muddatidan qat'iy nazar, mazkur kreditni qaytarish uchun yo'naltirish;

d) Bankning aybiga ko'ra kreditning ushbu Shartnomada belgilangan shartlarga zid ravishda to'liq bo'lmagan miqdorda yoki muddatiga rioya etilmagan holda taqdim etilishiga yo'l qo'yilganligi tufayli tovar sotuvchiga (ish bajaruvchiga, xizmat ko'rsatuvchiga) to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi uchun to'langan jarimani Bankdan qoplab berishni talab qilish.

6-§. Tomonlarning javobgarligi

19. Mazkur Shartnoma 15-bandining "a" kichik bandiga rioya etilmaganligi uchun Bank har bir muddati o'tgan kun uchun muddati o'tgan to'lov qiymatidan 0,1%, lekin muddati o'tgan to'lov qiymatining 10 foizidan oshmagan miqdorda Qarzdorga/mijozga penya to'laydi (bunda Qarzdorning/mijozning ushbu Shartnoma shartlariga Bank rioya etmaganligi asoslangan yozma talabi mavjud bo'lishi lozim).

20. Kredit maqsadli ishlatmaganligi uchun Qarzdordan/mijozdan kreditning maqsadli foydalanilmagan qismi qiymatidan 10% miqdorida, kreditning maqsadli ishlatilmagan qismi muddatidan oldin so'ndirgan holda, Bank jarima undiradi.

6-1-§. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

20-1. Tomonlar shartnoma tuzish, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldi.

20-2. Tomonlar ushbu Shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydi.

20-3. Har bir tomon shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va'da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

20-4. Tomonlar mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda korrupsiya harakatlarini bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi.

20-5. Qonunga xilof ravishda olingan daromadning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi tomonlarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoki almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'i yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyini, tasarruf etish va ko'chirish usulini, pul mablag'iga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga yo'l qo'ymaydi.

20-6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish holati bo'yicha bir tomon ikkinchi tomonni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qiladi.

20-7. Tomonlar tovarlar, xizmatlar va ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda yoki ularning manfaatini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi tomonlarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

a) korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmashligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;

b) ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

d) ularni faqat tomonning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;

e) ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

20-8. Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

20-9. Agar bir tomonga boshqa tomonning Shartnomaning 20-4-bandida belgilangan majburiyatlarning buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tomonni bu haqda zudlik bilan xabardor qiladi va tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab

qiladi.

20-10. Tomonning talabi bo'yicha tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu tomon shartnomani bir taraflama to'xtatib turish, bekor qilish hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

6-2-§. Sanksiyalar ro'yxatiga oid qo'shimcha shartlar

20-11. Qarzdor/mijoz bank hisobvarag'i bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishda Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlaydi va kafolatlaydi. Mazkur Shartnoma imzolanishi bilan Qarzdor/mijoz tomonidan Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlarga rioya qilinishi kafolatlangan hisoblanadi.

20-12. Qarzdor/mijoz Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan shaxslar bilan, shuningdek ularning manfaatini ko'zlab ish yuritishi mumkin degan asosli taxmin mavjud bo'lgan har qanday shaxslar bilan kelishuv, bitim, shartnoma imzolamaydi.

20-13. Qarzdor/mijoz Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarga yoki ularning manfaati uchun har qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaydi.

20-14. Qarzdorning/mijozning Bankka taqdim etgan hujjat va ma'lumotlari yolg'on, ishonchsiz va/yoki noto'g'ri bo'lib chiqsa yoki ushbu paragrafda qayd etilgan shartlar Qarzdor/mijoz tomonidan bajarilmasa, Bank Qarzdorning/mijozning topshirig'i asosida amalga oshirilgan bank operatsiyalari tufayli chiqib ketgan mablag'ning qaytarilishi, band solinishi, muzlatilishi, yo'qotilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

20-15. Qarzdorga/mijozga Sanksiyalar ro'yxati asosida vakolatli organ, tashkilot yoki banklar tomonidan cheklov va taqiq choralar (pul mablag'iga band solinishi, to'lovning rad etilishi va boshqalar) qo'llanganligi uchun Bank javobgar emas va Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiq tufayli ushbu Shartnoma bo'yicha Bank o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida Qarzdorga/mijozga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.

20-16. Bank Qarzdorning/mijozning boshqa davlatlar qonun hujjatlari bilan cheklangan yoki taqiqlangan bank operatsiyalarini banklar va/yoki kontragentlar foydasiga amalga oshirmaslik huquqiga ega. Bunday holda, tashqi savdo shartnomalari yuzasidan amalga oshirilmagan bank operatsiyalari bo'yicha javobgarlikni Bank o'z zimmasiga olmaydi.

20-17. Qarzdorning/mijozning topshirig'ini bajarish tufayli Bankka nisbatan mulkiy/nomulkiy sanksiyalar qo'llanilsa, Qarzdor/mijoz Bankka nisbatan qo'llanilgan sanksiyalar natijasida kelib chiqqan zararni qoplab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7-§. Fors-major holatlar

21. Ushbu Shartnomaga ko'ra qabul qilingan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan tomon, agar bunga fors-major holat sabab bo'lganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

22. Fors-major holatlarga, ular oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar tomonlarning mazkur Shartnomani bajarishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, quyidagilar kiradi:

a) tabiiy hodisalar (zilzila, yong'in, ko'chki, dovul, suv toshqini, epidemiya, qurg'oqchilik, portlash);

b) ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakat, ish tashlash, ommaviy tartibsizliklar, qamal, davlat tashkilotlari hamda davlatlar o'rtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek barcha darajadagi davlat organlarining qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan fors-major holat sifatida tan olingan va e'lon qilingan vaziyatlar).

23. Fors-major holat sodir bo'lishi oqibatida o'z majburiyatini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan va javobgarlikdan ozod qilishni da'vo qiladigan tomon fors-major holat sodir bo'lganini ma'lum bo'lishi bilan ikkinchi tomonni mazkur holat to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

24. Javobgarlikdan ozod bo'lish uchun asos fors-major holat sodir bo'lgan vaqtdan boshlab yoki agar xabar o'z vaqtida berilmagan bo'lsa, u holda xabar berilgan sanadan e'tiboran kuchga ega bo'ladi. Xabar berilmasligi, majburiyatni bajarmagan tomon zimmasiga ko'rilgan zararni qoplash yuzasidan javobgarlikni yuklaydi.

25. Fors-major holatning 6 oylik muddat davomida saqlanib turishi mazkur Shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

8-§. Nizoni hal etish tartibi

26. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha kelib chiqqan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash,

shu jumladan muzokara o'tkazish orqali bartaraf etishga haqli hisoblanadi.

27. Taraflar mazkur Shartnoma bilan bog'liq bo'lgan, muzokara yo'li bilan hal qilish mumkin bo'lmagan barcha nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko'rib chiqishga kelishib oldilar.

9-§. Boshqa shartlar

28. Qarzdor/mijoz kredit qaytarilishining ta'minotini belgilovchi mulk garovi shartnomasini (kafillik shartnomasi, sug'urta polisini) Bankka taqdim etadi.

29. Ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirish tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi va yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Bank ushbu Shartnoma shartlarini, shu jumladan kredit bo'yicha foiz stavkasini va uni belgilash tartibini, vositachilik haqi miqdorini hamda ushbu Shartnomaning amal qilish muddatini bir tarafdama o'zgartirishga haqli emas.

30. Ushbu Shartnoma tomonlar tarafidan imzo qo'yilgandan so'ng kuchga kiradi va Qarzdor/mijoz o'z majburiyatlarini to'liq bajarib bo'lganga qadar amal qiladi. Shu bilan birga kreditni taqdim etish bo'yicha Bank majburiyati Qarzdor/mijoz tomonidan quyidagi shartlar bajarilgandan so'ng amalga kiritiladi:

a) garovga qo'yilgan mulkni kreditning to'liq davriga Qarzdor/mijoz tomonidan Bank foydasiga sug'urta qilish hamda sug'urta shartnomasi va sug'urta polisining aslini Bankka topshirish;

b) Bank va Qarzdor/mijoz o'rtasida tuzilgan ipoteka (garov) shartnomasini notarial tartibda tasdiqlatish [agar ko'chmas mulk va transport vositasi birlamchi bozordan sotib olingan bo'lsa, Bank tomonidan ajratiladigan kredit bo'yicha ushbu ko'chmas mulkning (transport vositasining) o'zi garovga olinganda ipoteka (garov) shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanmaydi].

31. Ushbu Shartnoma 30-bandida qayd etilgan shartlar Qarzdor/mijoz tomonidan bajarilmaganligi tufayli shartnoma tuzilgan kundan boshlab 30 kalendar kuni davomida kreditni taqdim etish bo'yicha Bank majburiyatlari kuchga kirmasa, mazkur Shartnoma va u bo'yicha tomonlarning barcha majburiyati amal qilishini to'xtatadi.

32. Tomonlar ushbu Shartnomaning to'liq maxfiyligini ta'minlaydi va uning shartlarini tomonlarning o'zaro roziligisiz uchinchi tomonga oshkor qilmaslik majburiyati oladi.

33. Agar tomonlardan biri tashkiliy-huquqiy shakldagi o'zgarishni o'z boshidan o'tkazsa, ikkinchi tomon oldidagi o'z majburiyatini o'zgarish ro'y bergunga qadar bajarishi yoki o'zining huquqiy vorisiga yuklashi lozim.

34. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

35. Mazkur Shartnoma ilovalari, unga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar ular kuchga kiritilgandan boshlab ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

36. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha holatlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining qoidalari qo'llaniladi.

10-§. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari

Bank:

Manzili _____
Tel. _____ Faks: _____
Bank kodi _____
Hisobvarag'i _____
STIR _____
Boshqaruvchi _____
Muhr o'rni

Qarzdor/mijoz:

Manzili _____
Tel. _____ Faks: _____
Bank kodi: _____
Hisobvarag'i _____
STIR _____
Rahbar _____
Muhr o'rni

Kredit liniyasi ochilgan holda kreditlash to'g'risida
20__ yil " __ " _____ dagi _____-son
kredit shartnomasiga
ILOVA

KREDIT LINIYA^SINING KAMAYISH JADVALI

(so'm va tiyinda)

Kredit qiymati	_____ so'm					
Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi				yillik ___%		
Kredit muddati		___ oy				
№	Kredit liniyasi kamayish sanasi	Kredit liniyasi qiymati	Kredit liniyasi kamayish qiymati	Kredit liniyasi qoldig'i	Foiz to'lovi	Kredit liniyasi bo'yicha umumiy to'lov
1						
2						
3						
4						
5						
6						
7						
8						
9						
Jami				x		

Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari

Bank:

Qarzdor/mijoz:

Manzili _____

Manzili _____

Tel. _____ Faks: _____

Tel. _____ Faks: _____

Bank kodi _____

Bank kodi: _____

Hisobvarag'i _____

Hisobvarag'i _____

STIR _____

STIR _____

Boshqaruvchi _____

Direktor _____

Bosh buxgalter _____

Bosh buxgalter _____

Muhr o'rne

Muhr o'rne